

ZEBUNISOBEGIM SHE’RIYATIGA DOIR AYRIM MULOHAZALAR**Asrorov Akbar Abulxayevich***Samarqand davlat universiteti Urgut filiali Tillarni o‘qitish metodikasi kafedrasida dotsenti.**Tel: 997315618; Asrorov akbar @ gmail.com***Shodmonova Mehribonu***Pedagogika va tillarni o‘qitish fakulteti 1-kurs talabasi*

Annotatsiya: Mazkur maqolada Zebunisobegimning she’riy merosi hamda uning shaxsiy xarakter xususiyatlari tahlil qilinadi. Zebunisobegim Sharq mumtoz adabiyoti an’analari asosida ijod qilgan iste’dodli shoira sifatida o‘z davrida muhim o‘rin egallagan. Maqolada uning g‘azallaridagi falsafiy qarashlari, ishqiy va tasavvufiy motivlari ilmiy jihatdan yoritiladi. Shuningdek, shoira shaxsining ichki kechinmalari, erkin fikrlashi, ziyrakligi va mustaqil xarakteri uning ijodida qanday aks etganligi masalasini atroflicha ochib berishga harakat qilindi.

Kalit so‘zlar: She’riy meros, tasavvuf, falsafiy qarashlar, g‘azal janri, ruhiy kechinma, badiiy tafakkur, obrazlilik, ma’naviy olam, majoziy ifoda.

Abstract: This article analyzes the poetic heritage of Zebunisobegim and her personal character traits. Zebunisobegim occupied an important place in her time as a talented poetess who created based on the traditions of classical Eastern literature. The article scientifically illuminates her ghazals, philosophical views, romantic and mystical motifs. It also reveals how the poet's inner experiences, free thinking, intelligence and independent character were reflected in her work. As a result of the study, the inextricable link between Zebunisobegim's poetry and her personality is substantiated.

Keywords: poetic heritage, mysticism, philosophical views, ghazal genre, lyrics, romantic motif, spiritual experience, artistic thinking, aesthetic views, imagery, spiritual world, inner dramatism, poetic style, figurative expression.

Zebunisobegim – Zahiriddin Muhammad Bobur podshohning nevarasi Abu Zafar Muhiyiddin Muhammad Avrangzeb (taxtbezagi) Olamgirning qizi. Uning onasi Dilrasbonu Shohnavozxonning qizi bo‘lib, Boburning Gulbadanbegim ismli qiziga borib tutashadi. Zebunisobegim (1048 hijriy yil shavvol oyi) 1639-yil milodiy, fevral oyida Dehlida tug‘ilgan. Uning otasi Avrangzeb (1618-1707) yoshligidanoq dindorligi bilan nom chiqargan edi. U riyokorlik bilan «umrimni ibodatda o‘tkazmoq uchun Makkaga borib, bu dunyo ishlaridan qo‘l yuvaman», deb yurar va oddiy xalqqa o‘zini avliyo qilib ko‘rsatardi. U otasi Shoh Jahon

(shahzoda Xurram) qo‘l ostidagi Dekan viloyatining hokimi edi. Ammo otasi Shoh Jahonga qarshi bir necha marta isyonlar ko‘taradi. Nihoyat, 1657 yilda, otasi Shoh Jahonning kasalligidan foydalanib, katta akasi Doro Shukuhni hokimiyatdan azl qilmoq uchun kichik akasi Shoh Shujo‘ va ukasi Murod Baxshlar bilan ittifoq tuzadi. 1658 yilda akasi Doro Shukuhni asirga olgach, otasi Shoh Jahonni ham taxtdan tushirib, qasrda mahbuslikda saqlaydi. Ko‘p o‘tmay ukasi Murod Baxshni ham ushlab zindonga tashlaydi va o‘sha yerda bo‘g‘ib o‘ldirtiradi. Kichik akasi Shoh Shujo‘ darbadarlikda Birma tuprog‘iga o‘tib, o‘sha yerda butun oila a‘zolari bilan birga qaroqchilar qo‘lida o‘lib ketadi. Katta akasi Doro Shukuhni dinsizlikda ayblab, zindondan olib chiqadi va shahar maydonida boshini kestiradi. O‘sha kuniyoq Doro Shukuhning kesilgan boshini laganga solib mahbuslikda yotgan kasal otasi Shoh Jaxon oldiga kiritadi. Shoh Jahon esa mahbuslikda sakkiz yil yig‘lab-yig‘lab ko‘zi ko‘r bo‘lib, olamdan o‘tadi.

Avrangzeb Qur‘onni yod bilar, talaygina she‘rlarni yoddan o‘qir, o‘zi ham she‘r yozardi. Ammo qattiqqo‘l, birovning haqidan xazar qilmaydigan, qon to‘kishni oddiy bir zarurat deb biluvchi toshbag‘ir bir kishi edi. U qirq to‘qqiz yil hukmronlik qilib, 1707 yilda 89 yoshida Ahmadobod shahrida vafot etadi. Avrangzeb ko‘p yillik hukmronlik davrida ota-bobolariga o‘xshab me‘morlik, adabiyot va san‘atning rivoji uchun qayg‘urmadi. “Tazkirat ul-havotun”da aytilishicha, Avrangzebning besh o‘g‘li va besh qizi bo‘lgan. O‘g‘illari: Muhammad Sulton, Muazzam Shoh (keyinchalik Bahodir Shoh), A‘zam Shoh, Muhammad, Amin Kom Baxsh; qizlari – Badriniso begim, Zebuniso begim, Ziynatniso begim, Zubdatniso begim va Mehriniso begimlardir

Zebunisobegim o‘z zamonasining fozila ayollaridan Hafiza Maryam Bonu qo‘lida savod chiqargan. Otasi Zebunisoning shoirlilik iste‘dodini payqab, unga o‘z davrining yetuk olimlaridan Mullo Muhammad Ashraf Isfahoniy va Mullo Jovonni muallim qilib tayinlaydi. Zebunisobegim zabardast shoira, yetuk olim, usta tanbur chertuvchi sozanda va mohir xattot bo‘lib yetishadi. Arab-fors tillarining sarfu nahv (morfologiya va sintaksis)ini, fiqh (qonunshunoslik), mantiq, falsafa, tarix fanlarini puxta o‘zlashtiradi. Qur‘onni bir necha marotaba husnixatda ko‘chirgan va yoddan qiroat bilan o‘qigan. Zebunisobegimarab va fors tillari sarfu nahvini egallab, shu tillarda ham ijod qildi. Zebunisobegim olimlarga, shoirlarga va san‘at ahllariga homiylik ko‘rsatib, ularga maosh to‘lab turgan. «Olami Islom» tazkirasidagi «Zebunisobegimotasi hukmdorlik bilan qozonolmagan shuhratni ilm odob bilan qozongan» jummalari fikrimizni tasdiqlaydi. Zebunisobegim bir qator shogirdlarni ilm-ma‘rifat, odob va g‘azaliyot bobida tarbiyalab, kamolotga yetkazgan, Sharqning mashhur shoiri Mirzo Abduqodir Bedil o‘z qizini Zebuniso begim tarbiyasiga topshirgan. Natijada u shoiralik darajasigacha yetishgan. «Muntaxab at-tavorix» devonidan o‘rin olgan quyidagi bayt Mirzo Bedil qiziga nisbat berilgandir:

Yoram maro bahonayi tanho nishondu raft,
Guftam, ki man g‘uboram, doman fishondu raft.

Mazmuni:

Yorim meni yolg‘iz tashladi-yu, ketdi, hatto yo‘lingda g‘uboringman desam ham etagini qoqdi-yu ketdi.

Afg‘onistonda nashr etiladigan “Kobul” jurnalining 1922-yilgi 10 -sonida Zebunisobegimhaqida shunday ma’lumot keltiriladi: «Zebuniso begimning chiroyli bir devoni bo‘lgan. Yana tasavvuf falsafasiga oid «Munis ul-arvoh» asari ham bor. Tafsir sohasida 769 varaqli «Zeb at-tafsir» («Go‘zal tafsirlar»)ni yozdi. Bundan tashqari ilohiyotga doir «Zeb an-nashaot» nomli asar yozib, uni ustozini xotirasiga bag‘ishladi. Hindiston musulmonlari orasida dasturulamal bo‘lib qolgan «Fatavoyi olamgiriyy» («Shariat qonunlari majmuasi») asarini fors tiliga tarjima ham qildirdi». Ko‘rinib turibdiki, Zebunisobegimo‘z zamonasining oqila va zukko qizi, o‘sha muhitning barkamol ziyolisi edi. Shohira otasi shoh Avrangzeb Olamgirning yaqin maslahatchisi bo‘lgan bo‘lsada, begim maslahatlarining hammasi ham shohga ma‘qul bo‘lavermagan. Ayniqsa, adolat va ma‘rifat bo‘yicha bergan maslahatlari, erkin fikrlari shohga yoqmagan. Ammo bir narsani ta‘kidlash lozimki, Avrangzeb Olamgir Zukko olima, hassos shohira bo‘lmish go‘zallar go‘zali Zebuniso begimga umr yo‘ldosh tanlash ishiga qattiq qarshilik ko‘rsatgan. Zebuniso begimni istagan kishilarning son-sanog‘i bo‘lmagan. Biroq, Zebunisobegimularning hech birini o‘ziga munosib topmagan. Zero, Zebuniso begimga ilhaq bo‘lganlarning aksari shahzodalar, amirzodalar, bekdodalar va yirik mulkdorlar edi. O‘z zamonasining shoirlaridan ham Zebuniso begimga yostiqdosh bo‘lishga orzumandlar ko‘p bo‘lgan. Ko‘pgina tarixiy asarlarning guvohlik berishicha, Zebunisobegim yoshligida Oqilxon Roziy ismli shoirtabiati bir yigitga ko‘ngil qo‘yadi. Oqilxon Roziy ham Zebuniso begimga ishqiy misralar yo‘llab turgan. Shoh Avrangzeb oshiqma‘shuqning maxfiy uchrashuvlaridan xabar topgach, ularni ta‘qib ostiga oladi va Oqilxon Roziyning o‘lim jazosi bilan jazolaydi. «Tazkirati shoiroti urdu»da naql qilinishicha, Oqilxon Roziyning qatl qilayotganlarida, u quyidagi g‘azalni o‘qigan ekan:

Ba‘daz murdan zi jafoyi tu agar yod kunam,
Az kafan dast berun oram va faryod kunam.⁵⁸

Mazmuni: Agar sening jafolaringni eslasam, o‘lganimdai keyin ham kafandan qo‘limni chiqarib, faryod chekaman.

Manbalar ko‘rsatadiki, Zebuniso begimning suyanchisi, sevgan kishisi va dardkashi bo‘lgan. Ammo shoh Avrangzeb bu yigitni o‘ziga kuyov qilishdan or qilib, uning bo‘yniga tuhmat toshini osib, qatl qildirgan.

Oqilxonning o‘limidan so‘ng, Zebunisobegim qalbida yangi yor uchun o‘rin qolmaydi. U o‘z umri davomida poyoniga yetmagan ishqiy dostonini kuylab o‘tadi:

Har matoero xaridor ast dar bozori husn,
Pir shu-d Zebuniso o‘ro xaridore nashud.

Mazmuni: Husn bozorida har matoga bor xaridor, ammo Zebuniso qaridi-yu unga xaridor topilmadi. «Olami Islom» risolasida yozilishicha, eron shahzodalardan biri Zebuniso begimning husn-latofatda tanholigini eshitib, uni g‘oyibona sevib qoladi. Uning firoqida kuyib, oshiqona g‘azallar yozib, ulardan bir misrani Zebuniso begimga yuboradi.

Turo, ey gulbadan, beparda didan orzudoram,
Latofathoyi husnatro rasidan orzudoram-.

Mazmuni: Ey gulbadan, seni pardasiz ko‘rish, husnu latofatlaringga yetishish orzusidaman, - deydi. Bunga nisbatan Zebunisobegim quyidagi javobni yozadi:

Bulbul az gul biguzarad gar dar chaman binad maro,
Vutparasti kay kunad gar baraxman binad maro?
Dar suxan pinhon shudam monandi bo‘ dar bargi gul,
Mayli didan harki dorad, dar suxan binad maro.-

Mazmuni: Agar bulbul meni chamanda ko‘rsa, gul bahridan kechardi, agar barahman meni ko‘rib qolsa, butga sajda qilmasdi. Gul o‘z hidini yaproqlariga yashirganday, men ham so‘zda yashiringanman, kimning xohishi meni ko‘rmoq bo‘lsa, meni so‘zda ko‘rsin, axtarsin.

Zebunisobegimning hayot yo‘li afsonaviy voqealarga boy. Uning nasli ota tarafidan ham, ona tarafidan ham Bobur podshohga borib tutashadi. Demak, shoh qizi, boz ustiga aql va idrokda tengsiz, yuksak she‘riy iste‘dod sohibasi, nazm mulking malikasi, malikalar ichra go‘zali... Zebunisobegimhusnu latofat va malohatda benazir, fazilatda beqiyos bo‘lsa-da, o‘zining 63 yillik umri davomida o‘ziga munosib, hamdard yor topa olmadi. U 1702 yilda 63 yoshida Dehlida vafot etdi. Zebunisobegim hayoti va faoliyati Sharq tarixida ayolning ilm, ma‘naviyat va ijod orqali yuksak darajaga erisha olishini yaqqol namoyon etadi. U yuksak saltanat muhitida voyaga yetgan bo‘lsa-da, dunyoviy hashamatni emas, balki ilm-fan, adabiyot va ruhiy kamolotni ustun qo‘ygan.

Garchi man Layli asosam dil chu Majnun dar havost,
Sar ba sahro mezanam, lekin hayo zanjiri post.
Bulbul az shogirdiyam shud hamnishini gul ba bog‘,
Dar muhabbat komilam,parvona ham shogirdi most.
Dar nihon xunam,ba zohir garchi rangi g‘ozaam,
Rangi man dar man nihon chun rangi surx andar hinost.
Baski bori g‘am berun andoxtam bar ro‘zg‘or,
Joma niliy kard inak bin, ki pushti dutost.

⁵⁸ Zebuniso. G‘azallar. Devoni maxfiy. To‘xtasin Jalolov. O‘zbek shoiralari. www.kh-davron.uz

Duxtari shoham valekin ro‘ ba faqr ovardaam,
Zebu ziyat bas haminam: nomi man Zebunisost.⁵⁹

Zebunisobegim chuqur bilim egasi bo‘lib, arab va fors tillarini mukammal o‘zlashtirgan, tafsir, fiqh, mantiq, falsafa kabi fanlarni puxta egallagan. U nafaqat shoira, balki xattot, musiqashunos va ilm-fan homiysi sifatida ham tanilgan. Uning ijodi va ilmiy merosi o‘z davrida katta e‘tirof qozongan va ko‘plab olim hamda shoirlarni qo‘llab-quvvatlagan.

Aurangzeb hukmronligi davrida yuz bergan siyosiy ziddiyatlar, qattiqqo‘l boshqaruv va saroy ichidagi murakkab munosabatlar Zebunisobegimtaqdiriga ham kuchli ta‘sir ko‘rsatgan. Ayniqsa, uning erkin fikrlari, adolat va ma‘rifat haqidagi qarashlari otasining siyosatiga to‘g‘ri kelmagan:

Biyoki zulfi kaju chashmi surmaso injost,
Nigohi garmu adohoyi dilrabo injost.
Zakoti husn agar medihi baroyi xudo,
Biyoki Zebuniso hamchu man gado injost.⁶⁰
Zulfi halqa-halqau ko‘zi qaro bu yerdadir,
Boqishi shafqatli-yu, nozikado bu yerdadir.
Istasang husning zakotini berarga mustahiq,
Kelki, bu Zebuniso yanglig‘ gado bu yerdadir.

(M.Muinzoda tarjimasi)

Matnda keltirilgan voqealar Zebunisobegimning nafaqat ilmli, balki chuqur hissiyotga ega inson bo‘lganini ko‘rsatadi. Uning Oqilxon Roziy bilan bog‘liq muhabbat tarixi fojeali yakun topib, bu uning butun hayotiga iz qoldirgan. Shu sababli u umrining qolgan qismini yolg‘izlik va iztirob ichida o‘tkazgan. Bu holat uning she‘rlarida ham aks etib, ishq, hijron va sadoqat mavzulari yetakchi o‘rin egallagan:

Dur bod az tan sare k-oroyishi dore nashud,
Bishkanad daste, ki xam bar gardane yore nashud...
Har matoero xaridorest dar bozorho,
Pir shud Zebuniso, o‘ro xaridore nashud.⁶¹

Tarjimasi:

Tandin ajralsin u bosh, gar loyiqi dor o‘lmasa,
Sinsin ul qo‘l, yor bo‘ynida agar u bor o‘lmasa.

⁵⁹ Zebuniso. G‘azallar. Xurshid Davron kutubxonasi. www.Kh-Davron.uz

⁶⁰ Shu kitob

⁶¹ Zebuniso. G‘azallar. Xurshid Davron kutubxonasi. www.Kh-Davron.uz

Har matoga bor xaridor husnning bozorida,
Ne uchun Zebuniso qarrib, xaridor o‘lmasa?

Zebuniso Begimning shaxsiy hayoti og‘ir sinovlarga boy bo‘lsa-da, u o‘zining sabr-toqati, zakovati va iste‘dodi bilan ajralib turadi. U ayolning jamiyatdagi o‘rni faqat oilaviy hayot bilan cheklanmasligini, balki ilm va ijod orqali ham buyuk iz qoldirish mumkinligini isbotlab bergan.

Umuman olganda, Zebunisobegim Sharq madaniyati va adabiyotida o‘chmas iz qoldirgan buyuk siymo bo‘lib, uning hayoti – ilmga intilish, sadoqat, sabr va ruhiy go‘zallik timsolidir. Uning merosi bugungi kunda ham yosh avlodni ma‘rifatga, ezgulikka va chin insoniy fazilatlarga chorlab qolaveradi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Turg‘un Fayziyev. Zebunisobegim haqida ma‘lumotlar // Ziyo.uz Temuriy malikalar elektron kutubxonasi. – Toshkent: O‘zbekiston nashriyoti, 2013.
2. Alisher Navoiy. Asarlar to‘plami. – Toshkent: G‘afur G‘ulom nomidagi nashriyoti
3. Zahiriddin Muhammad Bobur. Boburnoma. – Toshkent: Sharq nashriyoti.
4. O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi. – Toshkent: “O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi” davlat ilmiy nashriyoti. Temuriy malikalar / Turg‘un Fayziyev. – Toshkent: O‘zbekiston nashriyoti, 2013.
5. Zebunisobegim haqida ma‘lumotlar // Ziyo.uz elektron kutubxonasi.